

Orifjonova Umidaxon Akmaljon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 4-bosqich talabasi

XORIJLIKLARGA O'ZBEK TILINI CHOG'ISHTIRIB O'QITISH METODIKASI (KO'PLIK SHAKLI MISOLIDA)

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida ko'plik shaklining qiyosiy tahlili haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, ushbu mavzuni ikki til qiyosida chog'ishtirib o'qitish bo'yicha metodik tavsiyalar va namunaviy topshiriqlar tavsiya qilinadi.

Kalit so'zlar: qiyoslash, grammatika, ko'plik, o'qitish, til.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается сопоставительный анализ формы множественного числа в английском и узбекском языках. Также рекомендуются методические рекомендации и примерные задания по преподаванию данного предмета на двух языках.

Ключевые слова: сравнение, грамматика, множественное число, обучение, язык.

ABSTRACT: This article presents a comparative analysis of the plural form in English and Uzbek. It also provides methodological recommendations and sample assignments for teaching this topic in a comparative manner in both languages.

Keywords: comparison, grammar, plural, teaching, language.

Bugun O'zbekistonimiz "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzi tobora oshib bormoqda. O'zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda faol qo'llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e'tibor va uni o'rganishga qiziqish kuchaymoqda.¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmonida xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar yaratish, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish va xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kurslarini zarur ilmiy, o'quv-uslubiy, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, o'zbek tilini o'rgatishga doir ilmiy tadqiqotlar miqdorini oshirish kabi bir qancha vazifalar belgilandi.²

Shu nuqtayi nazardan xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatishga qaratilgan o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalarda kamchiliklar borligi hech kimga sir emas. Shu sababdan, bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sifatida xorijliklar uchun darslik, qo'llanmalar yaratish, mavjudlarini zamonaviy yondashuvlar asosida yangilash kunning muhim masalalaridan biridir.

¹ Temirov J. Xorijliklarga o'zbek tilini qiyoslash orqali o'rgatish. Toshkent: International Scientific and Preactical Conference, 2024.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeni tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni.

Ushbu muammoning hal etilishi tilimizning xorijiy millatlar bilan muomala vositasiga aylantirilishi va rivojiga sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu tadqiqotimizda bir-biriga qarindosh bo'lmagan ikki oila tillari, ya'ni ingliz va o'zbek tillaridagi ko'plik shaklining o'xshash va farqli tomonlarini aniqlaymiz. Bu qiyosiy tadqiqot biz uchun xorijliklarga (assosan, inglizzabon bo'lgan o'zbek tili o'rganuvchilari uchun) o'zbek tilini chog'ishtirib, o'z ona tillariga qiyoslagan holda o'zbek tilini o'rganishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, inglizzabon talabalarga o'zbek tilini o'qitish jarayonida, ot so'z turkumini atroflicha o'qitishda bu so'z turkumining tarkibiga kiradigan va nutqimizda faol ishlatadigan ko'plik qo'shimchalarini ingliz tili bilan qiyoslab o'rgatsak tildagi asosiy farqlar aniqlanadi va chalkashlikni olgan bo'lishimiz mumkin. Misol uchun, o'zbek tili ot so'z turkumida ko'plik qo'shichasi -lar hisoblanadi, ingliz tilida esa -s, -es, -ies, kabi qo'shimchalar ko'plikni hosil qiladi.

Ko'plik qo'shimchasining o'zbek tilidagi muqobilini o'rgatishga o'tadigan bo'lsak:

Til	Birlik shakli	Ko'plik shakli
O'zbek tili	Kitob	Kitoblar
Ingliz tili	Book	Books
O'zbek tili	Ruchka	Ruchkalar
Ingliz tili	Baby	Babies
Ingliz tili	Box	Boxes

Har ikkala tilda ham umumiy qoidalar bilan birga mustasno holatlar mavjud. Masalan, ingliz tilida irregular plural nouns (mustasno ko'plik otlari) bor:

Man	Men
Tooth	Teeth
Foot	Feet
Mouse	Mice
Goose	Geese
Person	People

O'zbek tilida esa ayrim so'zlar semantik jihatdan ko'plikni bildirganligi uchun ularga -lar qo'shimchasi qo'shilmaydi: xalq, odamzod.

O'zbek tilida ko'plik qo'shimchasi asosiy so'zning tovush tizimiga ta'sir qilmaydi: daraxt → daraxtlar.

Ingliz tilida esa ba'zi so'zlarning talaffuzi o'zgaradi:

Wife	Wives
Leaf	Leaves
Wolf	Wolves
Knife	Knives
Life	Lives

O'zbek tilida suv, qum, havo kabi so'zlar odatda birlik shaklda keladi va ularning ko'plik shakli ishlatilmaydi.

Ingliz tilida ham bunday so'zlar mavjud va ular ko'plik shaklga ega bo'lmaydi: water, sand, air.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek va ingliz tillarida ko'plik tushunchasi bor va u asosan maxsus grammatik qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Lekin ingliz tilida bu tizim murakkabroq bo'lib, mustasno shakllari va maxsus talaffuz o'zgarishlariga ega. O'zbek tilida esa yagona -lar qo'shimchasi yetarli bo'ladi va semantik jihatdan ba'zi so'zlarga qo'shilmasligi mumkin.

Quyida xorijliklarga o'zbek tilida ko'plik shaklini qiyoslash orqali o'rgatishga doir na'munaviy topshiriq beramiz:

Topshiriq: "Qoidani o'zing top!"

(Inductive Learning - Mustaqil qoidani chiqarish)

Vazifa:

Talabalarga ingliz va o'zbek tillarida ko'plik shakllari misollari beriladi. Ular qoidalarini o'zlari chiqarib olishlari kerak.

Misollar:

Inglizcha (Singular – Plural)	O'zbekcha (Birlik – Ko'plik)
Book - books	Kitob - kitoblar
City - cities	Shahar – shaharlar
Tooth - teeth	Tish – tishlar
Child - children	Bola – bolalar

✂ Qoidalar:

1. Talabalar berilgan misollar asosida o'zlari qoidani tushuntirishga harakat qilishadi.
2. Guruh bo'lib muhokama qilishadi va o'z xulosalarini taqdim etishadi.
3. O'qituvchi ularning tushunchalarini aniqlashtirib boradi.

Bizningcha, shu tarzda qiyoslab o'rgatish ancha samarali va tushunarli. Kichik guruhlarda shu tarzda o'qitish, shuningdek ular bilan individual ishlash imkoni borligi ushbu mavzuning oson o'zlashtirishga sabab bo'lishi mumkin. Lekin, bu jarayonda ingliz talaba ham boshlang'ich ingliz tili grammatik qoidalaridan boxabar ekanligi katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Temirov J. Xorijliklarga o'zbek tilini qiyoslash orqali o'rgatish. Toshkent: International Scientific and Preactical Conference, 2024.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeni tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni.

Muhitdinova H. Xorijliklarga o‘zbek tilini o‘rgatish dasturi. Ilmiy-amaliy anjumani materiallari, -T.,2018